O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO`LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



SAMARQAND 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025-yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

qo‘llash zarurati sezilmoqda. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalar singari turizm sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyatida turizm va mehmondo‘stlik salohiyatini kuchaytirish hamda ekskursiya xizmatlarini rivojlantirish yo‘nalishalari

A.Y.Talibova-SamISI,Turizm kafedrasi dots.v.b.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatining turizm salohiyati, mavjud resurslari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, ekskursiya xizmatlari sifati va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekskursovodlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda mahalliy aholi ishtirokiga asoslangan yangi turizm modellarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar:turizm, turistik infratuzilma, ekskursiya faoliyati, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, raqamli texnologiyalar, ekoturizm, gastronomik turizm, turizm marketingi, mahalliy an’analar, Samarqand, turistik salohiyat, servis xizmatlari, ekskursovod tayyorlash, AR/VR texnologiyalari, brend strategiyasi.

Samarqand viloyati jahon sivilizatsiyasi tarixi va madaniyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan, Buyuk Ipak yo‘li davrida iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning yirik markazlaridan biri sifatida shakllangan hudud hisoblanadi. Bugungi global turizm industriyasining jadal rivojlanishi sharoitida Samarqand mamlakatning turistik salohiyatini namoyon etuvchi strategik makon sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Viloyatda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan ko‘plab me’moriy yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros elementlari, tabiiy landshaftlar va etnografik resurslar mavjud bo‘lib, ularning barqaror rivojlanishi mintaqaning iqtisodiy hamda ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon miqyosida ham yirik turistik markazlardan biri hisoblanadi. Bu hududda jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy meros ob’ektlari, tarixiy yodgorliklar, boy an’anaviy madaniyat va mehmondo‘stlik fazilatlari mavjud. Shu bilan birga, turizm sohasi iqtisodiyotning diversifikatsiya qilingan tarmoqlaridan biri sifatida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Turizm salohiyatining asosiy jihatlari.Madaniy va tarixiy meros – Samarqandda Registon majmuasi, Shohizinda nekropoli, Gur-Emir maqbarasi, Bibixonim masjidi va boshqa kabi jahon ahamiyatiga ega inshootlar mavjud.

Ularning targ‘iboti va samarali boshqaruvi turistik oqimni ko‘paytirishga xizmat qiladi.Tabiiy resurslar – viloyatida Urgut tog‘ yetaklari, Siyob va Zarfshon daryolari sohillari hamda milliy tabiiy hududlar ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.Ma’naviy va madaniy an’analar – mahalliy aholining milliy urf-odatlari, hunarmandchilik mahsulotlari va gastronomik turizm yo‘nalishlari sayyohlarni keng jalb qilishda muhim omil hisoblanadi.

Ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish zarurati.Ekskursiya xizmatlari turizm tarmog‘ining eng asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, sayyohlarning tarixiy-mənaviy bilimlarini oshirishga, ularning Samarqand haqida to‘liq va xolis tasavvurga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Hozirgi sharoitda qator muammolar mavjud:

-ekskursovodlar malakasini muntazam oshirish zarurati;

-ko‘p tilli ekskursiya dasturlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani;

-raqamli texnologiyalar (audio-gid, AR va VR dasturlari)ning cheklangan qo‘llanilishi;

-ekskursiya yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish ehtiyoji.

Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar.Infratuzilmani rivojlantirish – tarixiy yodgorliklar va turizm ob’ektlari atrofida zamonaviy transport, yo‘nalish ko‘rsatkichlari, axborot markazlari hamda servis xizmatlarini kengaytirish.Ekskursovodlar tayyorlash va qayta o‘qitish – oliy ta’lim muassasalarida maxsus kafedralar va kurslar tashkil etish, xorijiy tajribalarni joriy qilish, chet tillarini bilish darajasini oshirish.Raqamli texnologiyalarni joriy qilish – mobil ilovalar, onlayn bron qilish tizimlari, audio va video gidlar, virtual ekskursiyalar orqali turizm sifatini yaxshilash.Marketing va reklama ishlari – xalqaro ko‘rgazmalar, internet tarmoqlarida targ‘ibot, milliy turizm brendlarini yaratish va ularni jahon miqyosida ilgari surish.Mahalliy aholi ishtiroki – mahalliy hunarmandchilik, gastronomik festivallar, etnografik ko‘rgazmalar orqali aholini turizm jarayoniga jalb qilishdan iborat. Samarqand viloyatining turistik salohiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hudud o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi, tabiiy landshaftlari va etnografik an’analari bilan jahon turizm bozorida raqobatbardosh markaz sifatida namoyon bo‘lishi uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Registon, Shohizinda, Gur-Emir, Bibixonim kabi me’moriy yodgorliklar Samarqandning brendi sifatida xizmat qilib, sayyohlarning hududga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda oshirib kelmoqda. Shuningdek, Urgut tog‘ yetaklari, tabiiy hududlar va daryo vodiylari ekoturizmni rivojlantirishda muhim resurs sifatida qayd etiladi.Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasi yetarli emas. Turistik infratuzilmaning ayrim segmentlarida texnologik qoloqlik, ekskursovodlar malakasining yetarlicha yuqori emasligi, ko‘p tilli ekskursiya dasturlari kamligi, raqamli gidlar va AR/VR

texnologiyalarining past darajada qo‘llanilishi sohaning kompleks rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ekskursiya marshrutlarining cheklanganligi va turizm marketingida zamonaviy instrumentlarning kam ishlatilishi turistik oqimning sezilarli o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Hududiy turizmning barqaror rivoji mahalliy aholi ishtirokining faolligiga ham bog‘liq. Xunarmandchilik, milliy gastronomiya va etnografik festivallarning turistik mahsulotga to‘la integratsiya qilinmagani iqtisodiy samaradorlikni kamaytiradi. Shu sababli, mahalliy iqtisodiyot va turizm tarmoqlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Samarqandda turizmni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekskursovodlar tayyorlash tizimini qayta ko‘rib chiqish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, marketing va brendingni kuchaytirish, mahalliy aholi ishtirokini oshirish. Bu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq va ularni kompleks amalga oshirish Samarqandning jahon turizm xaritasidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Ekskursiya faoliyatini rivojlantirish Samarqandning turistik imijini oshirishda asosiy omil bo‘lib, ko‘p tilli gidlar, interaktiv ekskursiya platformalari va diversifikatsiya qilingan marshrutlar yaratilishi sayyohlar tajribasini sifat jihatdan yaxshilaydi. Shu bilan birga, mahalliy aholining turizm jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlash, xunarmandchilik va gastronomik turizmni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT SIYOSATIDA MOSLASHUVCHANLIK VA INVESTITSION TARKIBIY QISMLARNING ROLI HAMDA ULARNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Mustaqil izlanuvchi: Komilova Mukammal Shavkatovna

Anotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimida depozit siyosatini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xususan, moslashuvchan depozit dasturlarining joriy etilishi va ularning mijoz ehtiyojlariga moslashish imkoniyatlari hamda investitsion tarkibiy qismlarga ega depozit mahsulotlarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O‘zbekiston sharoitiga mos innovatsion depozit mahsulotlarini tatbiq etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada mavjud muammolar, imkoniyatlar va amaliy tavsiyalar orqali tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli barqaror moliyaviy aloqalarni shakllantirishning istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

	HISOBINING TASHKIL ETILISHI	
Munira Yusupova Chori Qizi	YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI KO‘LAMINI KENGAYTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	868-870
Sh.E.Abdurasulov	KREATIV IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARDA TURIZMNING RIVOJLANISH HOLATI VA TENDENSIYALARI	870-873
A.Y.Talibova	SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM VA MEHMONDO‘STLIK SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH HAMDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHALARI	873-875
Komilova Mukammal Shavkatovna	TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT SIYOSATIDA MOSLASHUVCHANLIK VA INVESTITSION TARKIBIY QISMLARNING ROLI HAMDA ULARNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI	875-879
Komilova Mukammal Shavkatovna	TIJORAT BANKLARI DEPOZITLARINING MAJBURIYATLARGA NISBATI VA FOIZ SIYOSATI	879-882
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	OLIY TA’LIMGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI	883-886
Quliyev Begimqul Melikovich	INNOVATSIYA VA INVESTITSIYA JARAYONI: KONSEPTSIYA VA MOLIYALASHTIRISH XUSUSIYATLARI	887-890
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	YASHIL TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI KENGAYTIRISHDA VENCHUR KAPITALNING STRATEGIK O'RNI: DOLZARB MASALALAR	891-895

	VA BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN YECHIMLAR	
Karimov Dilshod Turabboevich	O‘ZBEKISTONDA O‘RMON XO‘JALIKLARINI MOLIYALASHTIRISH HOLATI, TAHLILI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	895-899
A.T.Raxmatullayev	Turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlashning iqtisodiy mohiyati va zarurati	900-906
A.T.Raxmatullayev	Turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash modeli va mehnat bozorida bitiruvchilarni ishga jalb qilish jarayonlari	906-911
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna	Yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirish: Venchur kapital orqali muammolarni yengish va yechimlar taklif etish	911-915
Xolmirzayeva Gulruh Akbarovna	XUSUSIY INVESTITSIYALAR, IQTISODIYOT VA UNING RIVOJLANISHIGA TASIRI	916-918
Munavvarov Shohboz Asomiddin o‘g‘li	O‘ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMA VA YASHIL TEXNALOGIYALARNING O’RNI	918-921
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH YO‘LLARI	922-924
Исмаилов Аллаёр Рашидович	ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА КОРПОРАТИВ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР	924-928
Насиров Дилшод Фархадович	ФИНАНСОВЫЕ ИСТОЧНИКИ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	928-932

“YASHIL TEXNALOGIYALARGA INVESTITSIYALAR: BARQAROR RIVOJLANISH YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025-yil 24-25 oktabr)

“CHINGIZ ART GROUP” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2025

ISBN: 978-9910-09-586-3

© “CHINGIZ ART GROUP” MChJ nashriyoti,
Samarqand 2025 y.

4893

2025-yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 59.75
Buyurtma № 0116B/25. Adadi 30 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.